

TALABALARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-NAZARIY ASOSLARI

Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d PhD.

oxunova2302@gmail.com

<tel:+998901602032>

Bugungi kunda respublikamizda yosh avlodning qanchalik ziyoli, bilimdon, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liq sanaladi. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda barcha sohalar rivojlanib borayotgan bir davrda, sifatli kadrlarga bo'lgan talab ham ortib borishi tabiiy hol hisoblanadi. Shunday ekan, oddiy kadr emas, balki yetuk, o'z ishining ustasi bo'lgan pedagog kadrlarni yetishib chiqishi muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda shu yuzsidan o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kreativlik (ingl. "create" – yaratish, "creative" – "yaratuvchi", "ijodkor") – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik uchun quyidagilar muhim omil hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadli);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat bo'ladi:

1. Kreativ maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo‘nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O‘qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Kreativlik o‘qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi va uni o‘zini faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o‘sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Pedagogik yondashuvda kreativ qobiliyat talabaning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi, o‘z munosabatini erkin ifodalashi hamda kasbiy faoliyatga oid muammolarni ijodiy hal etishi bilan namoyon bo‘ladi. Kreativ qobiliyat faqat tug‘ma sifat sifatida emas, balki ta’lim jarayonida muayyan pedagogik shart-sharoitlar asosida rivojlantiriladigan kompleks imkoniyat sifatida qaraladi.

Kreativ qobiliyatning asosiy tarkibiy belgilari quyidagilardan iborat:

- fikrlashning moslashuvchanligi va erkinligi;
- g‘oyalarni tez va ko‘p ishlab chiqish qobiliyati;
- noodatiy va original fikrlash;
- muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuv;
- mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi.

Ta’lim jarayonida kreativ qobiliyatning rivojlanishi talabaning shaxsiy motivatsiyasi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va ta’lim muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Kreativ ta’lim muhiti talabalarning xatolardan qo‘rqmasdan o‘z fikrlarini bayon etishiga, ijodiy tashabbus ko‘rsatishiga imkon yaratadi. Talabalarda ushbu sifatlarni shakllantirish ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va pedagogik shart-sharoitlariga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida “kreativ qobiliyat” va “kreativ kompetentlik” tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, mazmunan farqlanuvchi ilmiy kategoriyalar hisoblanadi. Ushbu tushunchalarni aniq ajratib ko‘rsatish talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirish masalasini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’limda yakka “qobiliyat” tushunchasidan ko‘ra, uni amalga oshirish usulini o‘z ichiga olgan “kompetentlik” tushunchasi ustunlik qilmoqda. “Kreativ kompetentlik” – bu muammoli vaziyatlarda nafaqat yangi, balki samarali va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yechimlarni topish, loyihalash va amalga oshirish uchun

bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlarning integral uyg'unligidir. U quyidagi komponentlardan iborat:

Kognitiv (bilimli): fanlararo bilim, tahlil qilish va sintez qilish ko'nikmasi.

Operatsional (amaliy): loyihalash, eksperiment o'tkazish, prototip yaratish ko'nikmalari.

Shaxsiy (shaxsiy): mavjud an'anaviy g'oyalardan voz kechish qobiliyati (debrizing), xatoga bardosh, izlanish qiziquvchanligi.

Kreativ qobiliyatni aniqlash va tahlil qilishda psixologiya fanida ham kreativlikni o'rganish bo'yicha eng mashhur yondashuvlardan biri — psixometrik yondashuv bo'lib, u kreativ qobiliyatni o'lchanadigan, baholanishi mumkin bo'lgan psixologik parametrlar orqali tahlil qiladi. Ushbu yondashuvning asosiy vakillari J. Guilford va E. Torrance hisoblanadi.

Amerikalik olim J. Guilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi: - fikrining ravonligi; - fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; - o'ziga xoslik (originallik); - qiziquvchanlik; - farazlar yaratish qobiliyati; - xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

J. Guilfordning yondashuvi. J. Guilford (1950–1960-yillar) kreativlikni divergent fikrlash qobiliyati sifatida talqin qilgan. Divergent fikrlash — biror muammoga bir nechta, noodatiy va original yechimlar ishlab chiqish qobiliyatidir. Guilford fikricha, shaxsning kreativ qobiliyati uning intellektual strukturasiining bir qismi bo'lib, uni turli kognitiv komponentlar orqali o'lchash mumkin.

U kreativlikni to'rtta asosiy komponentga ajratadi:

1. *Fluency (O'zgacha, ravonlik)* – g'oyalarni tez va ko'p ishlab chiqarish qobiliyati.
2. *Flexibility (Moslashuvchanlik)* – turli yondashuvlar va qarashlar bilan muammolarni hal eta olish qobiliyati.
3. *Originality (Original, noodatiylik)* – g'oyalarning o'ziga xosligi, boshqalardan farq qilishi.
4. *Elaboration (Batafsil, to'ldirish)* – g'oyalarni kengaytirish va tafsilotlarini mukammal rivojlantirish qobiliyati.

Bu komponentlar birgalikda shaxsning ijodiy faoliyatini tashkil etadi va talabaniing muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishini aniqlashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda kreativlik nafaqat individual muvaffaqiyat, balki jamiyatning innovatsion rivojlanishi, madaniy boyligi va global raqobatbardoshligining asosiy omilidir. Shu sababli, uni rivojlantirishga qaratilgan har qanday sa'y-harakat nafaqat ta'lim tizimi, balki butun mamlakat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adizov B.R. Kreativ pedagogika: O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2022. – 156 b.
2. Begimqulov U.Sh. Oliy ta'limda axborot-ta'lim muhitini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari. – T.: Fan, 2020.
3. Daminov B.A. Oliy ta'limda talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish: Monografiya. – T.: Noshir, 2021.
4. Djuraev R.X., Tolipov O'. Q., Safarova R.A. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Fan, 2008. – 62 b